

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI**

**Qo'lyozma huquqida**

**UDK: 338.48:658.562(575.1)**

**BOLQIBOYEVA UGILOY BOLQIBOY QIZI**

**O'ZBEKISTONDA TURISTIK HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI**  
**OSHIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**71010401 – “Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)”**  
**mutaxassisligi bo'yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTASTIYA**

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof.A.A Eshtayev

**TOSHKENT 2023**

Magistrlik dissertasiya ishi "Turizm va servis" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

4 -sonli bayonnoma "17" 04 \_\_\_\_\_ 2023 y.


Kafedra mudiri: I.A.Axmedov

  
imzo

05.05.2023

sana

Ilmiy rahbar: A.A.Eshtayev

  
imzo

03.05.2023

sana

Talaba:

U.B.Bolqiboyeva

  
imzo

03.05.2023

sana

dissertasiya Magistratura bo'limi 2021-yil "20" 12 \_\_\_\_\_

№ 808 T raqami bilan ro'yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Turistik bozor, unda raqobatning shakllanishi va uni muvofiqlashtirishda davlatning o'rnini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Oxirgi yillarda global darajada turistik hududlar o'zaro keskin raqobat kurashiga kirgani turizmدا raqobat va turistik hududlarning raqobatbardoshligi masalalarini ilmiy-nariy jihatdan chuqur o'rganishni taqazo etib, dolzarb mavzuga aylantirdi. Shuning uchun, turizmدا raqobat va raqobatbardoshlik masalalari chuqur ilmiy izlanishni, ular shakllanishi va rivojlanishining qonuniyatlari hamda asosiy tendensiyalarini aniqlab olishni talab etadi.

Turizm sohasi rivojlanishida turistik hududlar raqobatbardoshligini oshirish muhim hisoblanadi. Bizning tadqiqotiimiz mavzusi bevosita shunga bog'liqdir. Ushbu tadqiqotimizda turistik hududlar raqobatbardoshligining mohiyati va xususiyatlari, turistik hudud raqobatbardoshligining tizimli-tuzilmaviy va iqtisodiy tahlili, turistik hudud raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish va ularning tahlili, turistik hudud raqobatbardoshligini baholashning metodik asoslari, turistik hududlar raqobatbardoshligini oshirishdagi mavjud imkoniyatlar va ularning tahlili yoritib berildi.

Mavzuning maqsad va vazifalarini yoritib berish jarayonida xorijiy va mahalliy manbalardan, ilmiy tadqiqotlardan keng foydalandik.

Mavuning ilmiy va amaliy ahamiyati keng bo'lib, O'zbekistonda turistik hudud raqobatbardoshligi tadqiqotlari orqali turistik sifatni oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

***Kalit so'zlar:*** turizm, iqtisod, raqobatbardoshilik, sanoat, xususiyatlar va boshqalar.

## ANNOTATION

It is important to study the role of the state in the formation of competition and its coordination in the tourist market. In recent years, the global level of touristic regions entered into a fierce competition among themselves, which made the issue of competition in tourism and the competitiveness of touristic regions a topical issue, requiring a deep scientific study. Therefore, issues of competition and competitiveness in tourism require in-depth scientific research, determining the laws of their formation and development, as well as the main trends.

It is important to increase the competitiveness of tourist areas in the development of the tourism industry. The topic of our research is directly related to this. In this study, the nature and characteristics of the competitiveness of tourist areas, the systematic-structural and economic analysis of the competitiveness of tourist areas, the use of foreign experience in increasing the competitiveness of tourist areas and their analysis, the methodological bases of evaluating the competitiveness of tourist areas, the existing opportunities for increasing the competitiveness of tourist areas and their analysis were highlighted.

In the process of elucidating the goals and tasks of the topic, we used foreign and local sources and scientific research.

The scientific and practical significance of Mavu is wide, and we have developed scientifically based proposals and recommendations on ways to improve the quality of tourism through research on the competitiveness of tourist areas in Uzbekistan.

**Keywords:** *tourism, economy, competitiveness, industry, characteristics, etc.*

# O'zbekistonda turistik hududlar raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini takomillashtirish

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	7
<b>KIRISH.....</b>	<b>9</b>
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	11
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	11
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>13</b>
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	13
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	15
1.3. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi.....	21
<b>II BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>24</b>
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	24
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	24
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	24
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	25
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>26</b>
3.1. Turistik hududlar raqobatbardoshligining mohiyati va xususiyatlari.....	26
3.2. Turistik hudud raqobatbardoshligining tizimli-tuzilmaviy va iqtisodiy tahlili.....	31
3.3. Turistik hududlar raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish va ularning tahlili.....	41

3.4. Turistik hudud raqobatbardoshligini baholashning metodikasi.....	50
3.5. O'zbekistonning turistik hududlari raqobatbardoshligini oshirishda turistik klasteri tashkil qilish imkoniyatlari.....	59
<b>XULOSA.....</b>	<b>65</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>67</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>72</b>

## KIRISH

### Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Mavzuning dolzarbligi. Turizm oxirgi yigirma yil davomida jahon iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri sifatida qayd etilib, unga mansul bo'lgan o'sish sur'atlari va jahon makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushi kelajal industriyasi sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'ldi. Statistik ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilning yanvar-iyun oylarida Ozbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar son 1876,3 ming kishini tashkil etdi. 2021-yilning bu davriga nisbatan bu kursoratkiel 1184,6 ming kishiga, yani 2,7 martaga oshgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenting 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan.

«Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik indeksida O'zbekiston Respublikasining o'rnini aks ettirish bo'yicha chora-tadbirlar»i, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi 828-son «Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

### Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekistonda turistik hudud raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqotda quyidagi vazifalar amalga oshirilgan:

- «turistik hudud», «turistik mintaqa», «turistik zona», «destinatsiya», kategoriyalarining mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etish;